# INSON HAYOTIDA ILK BOSMA NASHRLARNING AHAMIYATI

**Axmadjanova Muazzam**
**Islomjanovna**
Namangan davlat pedagogika
instituti
stajyor-o‘qituvchisi

muazzamaxmadjanova70@g
mail.com
Namangan davlat
pedagogika instituti
“Pedaogika” ta’lim yo’nalishi
1-kurs talabasi
**Sharifboyeva Muattarxon**
**Shomirza qizi**
muattar.sharifbayeva@g
mail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotining barcha sohalarini egallab olar ekan, jurnalistikaning eng qadimgi, eng ilk turi bilan tanishtiradi hamda umuminsoniy madaniyatning hosilasini yoritib beradi.

**Kalit so’zlar:** Gazeta, jurnal, ommaviy axborot vositalari, bosmaxona, matbuot, nashr.

**Abstract:** This article introduces the oldest, most primitive form of journalism, as the mass media take over all spheres of social life, and sheds light on the product of universal culture.

**Key words:** Newspaper, magazine, mass media, printing house, press, publication.

**Аннотация:** В данной статье средства массовой информации, занимающие все сферы жизни общества, знакомят с древнейшим, ранним видом журналистики и проливают свет на создание общечеловеческой культуры.

**Ключевые слова:** газета, журнал, средство массовой информации, типография, пресса, издание.

Insoniyatning taraqqiy etishida, ommaviy axborot vositalari, ayniqsa gazetaning o’rni beqiyosdir. Gazeta jamiyat hayotining dunyoqarashini kengaytirib, ongini oshiradi.

Biz insoniyat hayotidagi ilk bosma nashrlarni o’rganishimiz bejiz emas, sababi, bosma nashrlarning paydo bo’lishi insoniyat hayotiga katta o’zgarishlar olib keldi. Matbaachilikning rivojlanishi bilim va axborotning keng ommaga yetkazilishiga, madaniyat va ilm-fanning yuksalishiga hismat qildi. O’zbekistonda ham bosma nashrlar milliy matbuot va adabiyotining shakllanishiga zamin yaratdi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 27-iyun ommaviy axborot vositalarri hodimlari kunida, shu kasb egalarini tabriklab, o’z nitqlarida: “Biz bugun haqiqiy demokratik davlat qurayotgan ekanmiz, jurnalistikaning butun dunyoda e’tirof etilgan o’zgarmas talab va me’zonlariga amal qilishimiz zarur. Bu mezonlarning eng asosiysi xolislik va haqqoniylikdir. Binobarin, matbuot maydoniga kirgan inson – u jurnalist bo‘ladimi, bloger bo‘ladimi, bundan qat’i nazar – ana shu qoidalarga amal qilishi shart.Biz bo‘lg‘usi jurnalistlarimiz chuqur bilim va kasb mahoratini, ona tilimiz bilan birga chet tillarni, faol fuqarolik pozitsiyasini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, notiqlik malakasini puxta egallashlariga alohida e’tibor qaratishimiz zarur.[1]

Tarixchilar insniyat hayotidagi birinchi gazeta miloddan avvalgi II asrning o’rtalarida Qadimgi Rimda “Rim xalqlarining kundalik ishlari” nomi bilan paydo o’lgan deyishadi. Usha paytda gazetalar taxtachalarga yozib tarqatilgan. Dastlab norasmiy yangiliklarni tarqatish vositasi bo’lgan bunday “taxta matbuot” tez orada

hokimiyat nazariga tushib, Yuliy Sezarning topshirig'iga binoan unga senat yig'ilishi hisobotlari, harbiy sarkardalarning bayonotlari va qo'shni davlat hukmdorlarining murojaatlari kiritiladigan bo'lgan. Ushbu ommaviy kundalik gazeta milodning III asrigacha chop etilgan. Gazetaning jurnalistika tasnifida 1-o'rinda turganligi uning tarixidan ham kelib chiqadi. Uning nomi ham o'zidan oldingi qo'lyozma varaqalar, Venetsiyada chiqarilgan va "gatsette" degan tangaga sotilganligi "gazeta" deb nom olgan.

Gazetalarning paydo bo'lishida jurnalistikaning texnik asosi – bosma dastgohning ixtiro qilinishi eng ahamiyatlidir. Birinchi bosma gazetalar XVII asrning boshlarida Yevropada paydo bo'ldi. Bular, 1609-yilda Germaniyada nashr etilgan "Aviso", "Oder Zeitung" gazetalari, 1622-yilda Angliyada, "Weekly news from", 1631-yildan e'tiboran Parijda chiqa boshlagan "La gazette" gazetalari edi. AQSHda birinchi bosma gazeta 1690-yilda chiqdi. Rossiyada nashr etilgan birinchi bosma gazeta rus podshosi Pyotr I tomonidan chiqarilgan "Vedomosti" gazetasidir. Turkistonda ilk paydo bo'lgan ilk gazeta esa 1870-yildan e'tiboran chiqa boshlagan rus tilidagi "Turkestanskie vedomosti" va uning o'zbek tilidagi ilovasi "Turkiston viloyatining gazeti". Bu gazeta bir oyda to'rt marta – ikki marta o'zbek tilida, ikki marta qirgiz tilida chiqa boshladi. Ushbu gazeta Rossiya guberniya vedemostlariga tenglashtirilgan bo'lib, unga amaldorlar obuna bo'lishi majburiy edi. Turkiston general-gubernatorligi bu gazeta orqali o'z g'oyalarini tarqatishni maqsad qilib qo'ygan bo'lgan bo'lsada, amalda matbuot o'lkani har tomonlama o'rganib hamda rus aholini Turkiston hayoti bilan tanishtirish, ularga madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy xabarlar berish borasida alohida ahamiyat kasb etgan edi.[2]

Insoniyat tarixida tobora gazeta misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etdi. Bizning ilg'or fikrli jadidchilarimiz, yurtimizning asl farzandlari M.Abdurashidxonov, M.Behbudiy, A.Avloniy, Fitrat, Cho'lpon kabi allomalarimiz o'zlarining ma'rifatparvarlik g'oyalarini xalqqa yetkazish uchun "Taraqqiy", "Xurshid", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona", "Samarqand" kabi gazetalarni nashr etdilar.

Bosmaxona-matbaa mahsulotlari: kitob, jurnal, gazeta, plakat, blank kabilarni tayyorlaydigan sanoat korxonasi.

Qadimda risolalar asosan qo'lyozma tarzida tayyorlangan. Sharqda qo'lyozmalarni xattotlar bejirim qilib oqqa ko'chirib, naqqoshlar bezaklar bilan bezashgan, muqovasozlar varaqlarni tikib va qolipga tortib kitob holida chiqarishgan. Kitob bosishga doir dastlabki tajribalar Xitoyda 1041-1048-yillarda Bi Shen tomonidan amalga oshirilgan.

Dastlabki bosmaxona Germaniyada Iogan Guttenberg tomonidan 1445-yil tashkil qilingan. Italiyada birinchi printerlar nemislar Arnold Pannortz va Konrod Svenxaymlar tomonidan, Venetsiyada esa Johann Speyersky 1469-yillarda kitobni chop etish imtiyoziga ega bo'ldi. Venetsiyada bosma ish yuqori darajada rivojlangan. Shuning uchun XVI asrda 250 ga yaqin bosmaxona bo'lgan. Yozuv ixtiro qilinishidan oldin asosiy ma'lumotlar va yangiliklar ma'ruzachilar, hukumat habarchilari tomonidan yetkazilgan. Katta shaharlarda bu noqulay va samarasiz edi. Qadimgi Yunonistonda yozuv ihtiro qilinganidan keyin tosh bo'lakalri va metall plitalari ishlatilgan. Davlat tashkil etilganidan so'ng asosiy yangiliklar gips bilan qoplangan taxtalarga yozib qo'yilgan, ular taniqli joylarga papirus varoqlariga va pergamentga osib qo'yilgan. 1473-yilda Vengriyada birinchi kitob Buda shaxrida vengriyalik birinchi bosmachi Andrash Xess tomonidan chop etilgan. Bu "Buda xronikasi" shoh Matyash taxtga o'tirgunga qadar vengerlar tarixini tasvirlaydi.[3]

Turkisonda birinchi bosma kitob 1861-yil Turkiston harbiy okrugi shtabi (Toshkent)da chop qilindi. O'zbek tilida nashr qilingan birinchi kitob 1871-yil Shohirmardon Ibroximovning "Kalendar" ("Taqvim") kitobi bo'ldi. 1874-yil Xiva shahrida Muhammad Rahimxon (Feruz) tomonidan Litografiya (toshbosma) qurildi va u yerda 1880-yilda A.Navoiyning "Xamsa"si, shoir Munis Xorazmiyning "Devoni Munis" va "Devoni Roji" bayozlari bosilib chiqdi. 1898-yilda Toshkentda Eski shahar markazida hozirgi bosmaxona tashkil qilinib, bu yerda o'zbek, tojik, turkman, qozoq va qirg'iz tillarida darsliklar chiqarila boshladi. Ayni vaqtda u matbaachi kadrlar va matbaa tashkilotchilari tayyorlaydigan markazga aylandi. Keyinchalik Toshkentda,

viloyatlar va tuman markazlarida birin ketin bosmaxonalar qurildi. 2000-yilda 123 ta bosmaxona faoliyat ko'rsatar edi. Shundan "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik jamiyati bosmaxonasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasi ijaradagi Toshkent matbaa kombinati, rangli bosma fabrikasi, kitob jurnal fabrikasi, Birinchi Toshkent bosmaxonasi, Yangiyo'l kitob fabrikasi, Nukus matbaa kombinati, O'zbek-Britaniya "Rostr" qo'shma korxonasi yirik bosmaxona hisoblanadi.

Bosmaxonalar tayyorlaydigan mahsuloti turiga qarab, gazeta, jurnal, kitob, plakat, xarita, blank chiqaradigan va boshqa turlarga bo'linadi. Bosmaxonalar yirik, o'rta va kichik xillarga ham ajratiladi. Bosmaxonalar birlashib matbaa ishlarb chiqarish birlashmalarini tashkil qiladi. Bosmaxonaning asosan, bosma qoliplar tayyorlash, bosish, mahsulotlari pardozlash va yordamchi sexlari bo'ladi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng bosmaxonalar tubdan jihozlandi. Matn va rasmlar zamonaviy kompyuterlarda terilmoqda va chop etilmoqda.

Matbuot – barcha bosma mahsulotlar majmui, tor ma'noda davriy nashrlar, asosan gazeta va jurnallarni ifodalaydi.

Matbuot ijtimoiy ongning o'ktir va ta'sirchan vositasi sifatida kishilik jamiyatiga doyimiy va faol ta'sir ko'rsatadi, jamoatchilik fikrini shakllantiradi, omma ongiga muayyan qarashlarni singdirishda qudratli, g'oyaviy omil hisoblanadi.

Matbuot XV asrning o'rtalarida Yevropada tarkib topgan, qariyb besh asr davomida kishilar aro ommaviy muloqotning, bilim va g'oyalar tarqatishning asosiy vositasi sanalgan. XX asrda ommaviy axborotning radioeshittirish va televideniye singari turlarining paydo bo'lishi va taraqqiy qilishiga qaramay, matbuot hamon kishilik jamiyatidagi o'z o'rni va mavqeini yo'qotgani yo'q.

Istiqlol tufayli O'zbekiston matbuoti taraqqiyotida ham sifati jihatidan butunlay yangi – demokratik rivojlanish bosqichi boshlandi. Endilikda tashkilotlar, partiyalar, uyushmalar, ayrim jamoalar, fuqarolar ham matbuot nashrlarini ta'sis etish huquqiga ega bo'ldilar. Mamalakatda matbuot erkinligini ta'minlashga imkoniyat yaratila borildi. 1996-yil 30-avgust kuni Ommaviy axborot vositarining normal faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, ularni nashr etish va tarqatish bilan bog'liq

moliyaviy va texnik masalalarni yechishda, ijodkorlarning demokratik jarayonda faol ishtirok etishi uchun amaliy yordam ko'rsatish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Ommaviy axborot vositalarini qo'llab quvvatlash, ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi" tashkil qilindi. Bu jamg'arma ommaviy axborot vositalari vakillarining mustaqil, o'z-o'zini boshqaruvchi, hukumatga qarashli bo'lmagan tashkiloti hisoblanadi.

1996-yil 30-avgustda O'zbekiston Respublikasining "Noshirlik faoliyati to'g'risida", 1997-yil 27-dekabrda "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", 1997 24-aprelda "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida" qonunlari qabul qilinishi O'zbekiston matbuoti taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. 1993-yil 27-iyun sanasidan boshlab O'zbekistonda Matbuot va ommabiy axborot vositalari xodimlari kuni sifatida nishonlanib kelinadi.[4]

Siz azizlarning bugungi kasb bayramingiz bahona bir ezgu taklifni ilgari surmoqchiman. O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabalari uchun Mahmudxo'ja Behbudiy nomidagi stipendiyani ta'sis etsak, o'ylaymanki, bu ham yoshlarimizni milliy g'oya ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi." – deya e'tirof etdilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar**:


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.06.2020-yil "Matbuot va ommaviy axborot vositalari hodimlariga yo'llagan tabrigi".
2. "Bosmaxona" O'z.ME. Birinchi jild. Toshkent, 2000
3. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. Darslik, Namangan Davlat Pedagogika instituti. 2023 yil.
4. uz.wikipedia.org, ushbu maqolada O'zME ma'lumotlaridan foydalanilgan.